

ULUG' ALLOMALARNING PEDAGOGIK MEROSINI YOSH AVLODNI TARBIYALASHDAGI FOYDALANISHNI DOLZARBLIGI

Sadikova Roza Ismailovna

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

"Ijtimoiy fanlar va jismoniy madaniyat"

kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada IX-XII asrlarda Sharq mutafakkirlari yaratgan ma'rifiy qadriyatlar, ma'naviy-pedagogik merosning tarbiyaviy imkoniyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagogika, bilim, o'quv jarayoni, ma'naviyat, ezgulik, yosh avlod.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida yosh avlodni tarbiyalashda ulug' allomalarimizning pedagogik merosidan foydalanishga alohida e'tibor qaratish lozim. Chunki, IX-XII asrlar faoliyat ko'rsatgan Sharq mutafakkirlarining pedagogik merosida inson odobi, axloqi, imon-e'tiqodi, vijdoni, erkinligi, oila, farzand tarbiyasi masalalari nazariy jihatdan asoslab berilgan. Ta'lim-tarbiya vositasida butun insoniyat, ayniqsa yoshlarning ma'naviy barkamolligiqapop toptiriladi. Shuningdek, shaxs dunyoqarashi, e'tiqodi, ezgulik, go'zallik, yaxshilik, adolatlilik kabi shaxsiy sifatlari aynan ta'lim-tarbiya asosida shakllantiriladi. Shu nuqtayi nazardan sharqona ta'lim-tarbiya milliy qadriyat hisoblanadi. Mazkur qadriyat vositasida yosh avlodni tarbiyalash, ularga ta'lim berish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Beruniy o'zining asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari suradi. O'quvchiga bilim berishda:

- O'quvchini zeriktirmaslik;
- Bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- Uzviylik, izchillik;
- Tahlil qilish va taqqoslash;
- Ma'lumdan noma'lumga, yaqindan uzoqqa, soddadan qiyinga qarab borish;
- Takrorlash;

Yangi mavzularni qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon yetishga e'tibor berish kerakligini uqtiradi.[1] Beruniyning ushbu qarashlarida hozirgi kunda bizning

ta'lim-tarbiya sohamizda amal qilib kelinayotgan ta'lim tamoillarining bir nechtasi o'z ifodasini topganligini ko'rishimiz mumkin. Demak, alloma XI asr oldin tushungan va ilgari surgan qoidalar hozirgi kunda ham ahamiyatini yo'qotmaganligi uning o'tkir zehn sohibi, o'ta ilmli kishi bo'ganligini yana bir bor isbotlaydi. Abu Rayhon Beruniyning yosh avlod tarbiyasiga oid qadriyatlardan oliy ta'lim jarayonida foydalanish kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi. Uning tarbiyaviy merosi o'zbek xalqi ma'naviy boyligi sifatida jahon madaniyatiga muhim hissa qo'shgan.

Abu Nasr Farobiyning fikricha tarbiya berish usuli 2 turli bo'ladi: avvalgi usul san'atni o'z rag'batlari bilan o'rganuvchilarga ishlatiladigan usul. Ikkinchi usul esa majburiy ravishda tarbiyalanuvchilarni tarbiyalash uchun ishlatiladigan usul. Bolalar ustida turgan odam esa muallim bo'lib, u bolalarga tarbiya berishda turli tarbiya usullaridan foydalanadi.[2] Qomusiy olimlarimizdan biri Abu Ali Ibn Sino bolalarni alohida alohida o'qitishdan ko'ra, jamoa tartibida o'qitishni afzal deb biladi va uning ustunligi haqida shunday yozadi: "o'quvchilar o'qish va tarbiya davomida ilmga chanqoqlik sezadilar. O'z bilimlari bilan g'ururlanadilar, bir birlarining bilimlariga xavas qiladilar. G'urur va o'ziga e'tibor tarbiyalanuvchilarni bir biridan orqada

- qolmaslikka undaydi.”[3]
- Bilim olishda bolalarni maktabda o'qitish zarurligini qayd yetar yekan, olim ta'limda
- quyidagi tomonlarga rioya yetish zarurligini takidlaydi:
- Bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo'ymaslik;
- Ta'limda yengildan og'riga borish orqali ta'lim berish;
- Olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos bo'lishi;
- O'qitishda jamoa bo'lib maktabda o'qitishga ye'tibor berish;
- Bilim berishda o'quvchilarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- O'qitishni jismoniy mashqlar bilan qo'shib olib borish.

- Bu talablar hozirgi davr ta'lim prinsiplari bilan ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Ushbu prinsiplar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi. Talabaga bilim berish o'qituvchining mas'uliyatli burchidir. Shunga ko'ra, Ibn Sino o'qituvchining qanday bo'lishi kerakligi haqida fikr yuritar yekan, shunday yo'l-yo'riqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:
- Bolalar bilan muomalada bosiq, jiddiy bo'lish;
- Berilayotgan bilimlarni talabalar qanday o'zlashtirib olayotganiga ye'tbor berish;
- Ta'limda turli metod va shakllardan foydalanish;
- Talabalarni xotirasi, bilimlarni yegallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilish;
- Fanga qiziqтира olish;
- Berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olish;
- Bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi va aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- Har bir so'zning bolalar hissiyotini uyg'otishi darajasida berishga erishish zarur.

Demak, allomaning ushbu fikrlari davlat, jamiyat va hozirgi kunda ta'lim-tarbiya sohasida Ta'lim jarayonida yosh avlodni har tomonlama rivojlantirish uchun Sharq mutafakkirlarinnng tarbiyaga oid qadriyatlaridan foydalanish, ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini o'rganish va ularning imkoniyatlarini to'liq tahlil qilish zarur. Zamonaviy ta'lim sistemasida shu bilan bir qatorda, ta'lim jarayonida o'quvchi "raqamli transformatsiya kontekstida ta'lim faoliyatini qayta ko'rib chiqish ta'lim tashkilotlarini rivojlantirish guruhlar uchun maxsus tashkil etilgan amaliy dasturlar davomida amalga oshirilishi mumkin". [4] Jumladan: dars materiallarini egallash, berilgan topshiriqlarni o'zlashtirish jarayonida o'quvchi-talabalar jamoa bo'lib ishlashga odatlanib boradilar. Bu jarayonda o'qituvchilar kuzatuvchi, ekspert rolini bajarishlari kerak. Kichik

guruhlarni tuzishda hech bir narsa e'tibordan chetda qolmaslik zarur. Masalan. guruhlarda turlicha bilim darajasiga ega bo'lgan o'quvchi-talabalar, bir xil taqsimlanishi, kichik guruhning tarkibi (qizlar, yigitlar) aralash bo'lishi, ya'ni gender xususiyatlar hisobga olinishi kabilar. Ta'lim jarayonida bu kabi kichik guruhlarda ishlash jarayonida Sharq mutafakkirlarining hayoti, faoliyati, ijodi o'rganilishi, muhokama qilinishi kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al Farobiy. Sotsialno-eticheskiye traktati. Alma-Ata. 1976. 198 b
2. Buyuk siymolar, allomalar (O'rta Osiyolik mashhup mutafakkir va donishmandlar). K.I. T.: A.Qodiriy nomli «Xalq merosi» nashr., 1995. 102 b.
3. Abu Ali Ibn Sino. Kanon vrachebnoy nauki. Toshkent. 1985 y. 112 b.
4. Popov A.A. DOI 10.1145/3487757.3490876. - Text : electronic // DEFIN-2021: 4 International scientific and practical conference : proc., Saint Petersburg, 18-19 March 2021. - Art. 3490876. - URL: <https://dl.acm.org/doi/abs/10.1145/3487757.3490876> (access date: 14.03.2022). - ISBN 978-1-4503-9032-3.